



LINGVOKULTUREMALARNING MADANIYAT TASHUVCHANLIGI MILLIYLIK FENOMENI SIFATIDA

(Muhammadsharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari misolida)

Axmedova Dildora Dilshodovna

*Qarshi 39-sonli maktabning ona
tili va adabiyot fani o`qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada madaniyat va tilning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'sirini bir butunlikda o'rganishi, uning til va xalq o'rtasida tutgan o'rni, madaniyatning milliylikka munosabati ilmiy tadqiq qilinadi. Tilning davrlarosha madaniyat tashuvchanligi.

***Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, til, madaniyat, fenomen, lingvokulturologik tahlil, moddiy va ma'naviy madaniyat.*

XIX asrda V.Gumboldtning til va tafakkur munosabatlarini o'rganishda millat madaniyatiga asosiy e'tibor berilishi lozimligi haqidagi mulohazalari XX asrning 90-yillarida qator tilshunoslar tomonidan yangi fan lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lib, ushbu fan hozirgi zamon tilshunosligida juda tez sur'atlarda rivojlanib, umumiy tilshunoslikda alohida o'rin egalladi.

Lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniy fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N. Teliya bu haqida shunday yozadi:

“Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir”



[1.222]

V.Vorobyev “lingvokulturologiya – sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo’lib, u madaniyat va til o’rtasidagi o’zaro aloqalar va ta’sirlashuvlarni o’rganadi. Bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida mazkur jarayonni zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me’yorlar va qadryatlar) qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi”, - deb ko’rsatadi.

O’. Yusupov quydagicha izohlaydi:

“Lingvokulturema - o’z semantikasida (ma’nosida) madaniyatning biror bo’lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi.

Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo’lagini aks ettiruvchi so’zlar, frazeologik birliklar, so’z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega,

ifoda plani yuqorida ko’rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o’sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o’zining mazmun va ifoda planiga ega bo’lishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko’rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, “lingvokulturema” tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, “zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko’rinishida, ya’ni so’zlar vositasida ifoda etadi” . Agar madaniyatshunoslik insonning tabiat, jamiyat, san’at, tarix va boshqa ijtimoiy va madaniy borliq sohalarida o’z-o’zini anglash xususiyatini o’rgansa, tilshunoslik tilde dunyo lisoniy manzarasining mental modellari sifatida aks etuvchi



dunyoqarashni o'rganadi. Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot predmeti esa doimiy o'zaro ta'sirlashish holatida bo'lgan ham til, ham madaniyat hisoblanadi.¹

Quyida Muhammadsharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida berilgan maqollarning milliy madaniyat tashuvchanligi haqida fikrlarni ko'rib o'tamiz.

Adabiyotimiz tarixida „Zarbulmasal" nomi bilan tarqalgan asarlar juda ko'p bo'lgan. U, avvalo, bir tildagi masallarning oddiy to'plamini anglatgan. Shuningdek bir tildagi masallarning boshqa tilga qilingan tarjimalari ham „zarbulmasal" deb nomlangan. Biror masalga tayanib pandnoma yo'nalishida bitilgan risola ham „zarbulmasal" atalgan. Gulxaniyning „Zarbulmasal"i esa tamomila original badiiy asar bo'lib, dunyo adabiyotida o'xshashi yo'q hodisadir. Bu janrdagi asarlarda imo-ishora, kinoya asosiy tasvir usuli hisoblanadi. Ijodkor badiiy maqsadini odamlar taqdiri tasviri orqali emas, balki qushlar, jonivorlar vositasida ifodalaydiki, bu asarning ta'sir kuchini oshiradi.

„Zarbulmasal"ning majoziy ma'nosi, asardagi har bir qush obrazining biror toifaga mansub jonli odamni ifodalashi, bir-birini „cho'qib" emas, balki „chaqib" olishga tayyor, tili zahar qushlar timsoli Gulxaniy tomonidan ayni odamlarga xos illatlarni aks ettirish maqsadida tasvirlanganligi anglab yetilgandagina asardan chiqariladigan badiiy va hayotiy ma'noning qimmatini yuqori bo'ladi.²

Gulxaniyning adabiy merosi, ayniqsa, uning "Zarbulmasal"i bevosita xalq hayotidan hikoya qilishi, nihoyatda xalqchil va ommabop uslubda yozilgani, uning o'zbek tili va xalqning urf-odatlarini chuqur bilishini ko'rsatadi. Otasi asli qorateginlik bo'libxon nvkari yuzboshilridan biri bo'lib xizmat qilgan.

¹ Tafakkur manzili, www.REANDPUB.COM
2022 IYUN, ISSN:2180-2160

² «Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya
“ZARBULMASAL” ASARIDAGI OBRAZLAR TASNIFI
Tojamatova Sarvinoz Rustambek
qizi <https://doi.org/10.5281/zenodo.6668118>



“Zarbulmasal” (maqollar keltirib soʻzlash, oʻxshashi va timsolini keltirib gapirish)-majoziy mazmun beruvchi asar-masal boʻlib, unda turmush voqealari turlicha toifadagi, turlicha feʼl-atvorli kishilarning munosabatlari qushlar misolida (Yapaloqqush bilan Boyoʻgʻli oʻrtasidagi qudachilik mojarolarini bayon qilish orqali) hikoya qilinadi. Qushlar esa oʻzaro zarbulmasal yoʻli bilan gaplashadilar, maqsadga erishish uchun har xil maqol, matal, hikmat va chuqur mazmunli hikoyalarni keltiradilar. Eng muhimi, qushlarning oʻzaro munosabatlarini tasvirlash orqali mavjud ijtimoiy hayot manzaralarini, xalqning urf-odatlarini va anʼanalarini namoyon qildi, xalq donishmandligi durdonalarini toʻplab, ularni bitta voqea ipiga bogʻlab berdi. Asarning tarkibida bir nechta msal, hikoyat, rivoyatlar bor. 300ga yaqin maqol, matal iboralar joy olgan. Asarda tarix, etnografiya, til tarixi nuqtai nazaridan gʻoyatda muhim boʻlganki toʻplab fakt va materiallar uchraydi. Biroq Gulxaniy merosi ilmiy-tarixiy, lingvokulturologik aspektda hali yetarli darajada oʻrganilgani yoʻq.

Asardan olingan quyidagi maqollar oʻzbek xalqining urf-odatlarini, maʼnaviy va madaniy hayot tarzi, yashash sharoiti, fikrlash tarzi, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy ahvoli kabi jihatdan maʼlumot beradi.

Oshuqqon qiz erga borsa yorgimas.

Teshuk toʻlchoq yerda qolms.

Bosh eson boʻlsa toʻppi topilur.

Bor maqtansa topilur,

Yoʻq maqtansa chopilur.

Oʻy oʻylagan qul tek turmas.

Uyot oʻlumdin qattiq.

* * *

Ermon yagʻochini egilgani- singani,

* * *

Er yigitning uyolgani-oʻlgani.



* * *

Xotun olmoqq qunt kerak,
Kunda dahsar et kerak.

* * *

Ko`r tutganini, kar eshitganini qo`ymas.

* * *

Bitar ishni boshiga
Yaxshilar kelur qoshiga.

* * *

Bemor tuzalgusi kelsa,
Tabib o`z oyog`i bila kelur.

* * *

Og`iz bo`lma
Oyoq bo`l.

* * *

Oyog` yugurigi oshqa,
Og`iz yugurigi boshqa.

* * *

Otolmagan sapqon
Ham boshqa tegar, ham ketga.

* * *

Teng tengi bilan, tezak qopi bilan.

* * *

Topgan tomog`ini yog`lar.

* * *

Borliqtin maqtanma,

* * *

Maqtangan qiz to`yda uyalur.



* * *

Oyni etak biln yoshurub bo`lmas.

Chumchuq semurib botmon bo`lmas.

* * *

Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kulur.

* * *

Yaxshi nafas-yarim mol.

* * *

Otasi urmas qung`uznu-

Bolasi urar to`ng`uznu.

* * *

“Halvo” degan bilan og`iz chuchimas.

* * *

Karnaychidan nima ketar-

Bir “puf”.

* * *

O`zingni er bilsang-o`zgani sher bil.

O`zbek xalqining turmush tarzi va dunyoqarashi, milliy madaniyatini aks ettirgan, lingvokulturemalarni aniqlash, ularning siyosiy, iqtisodiy va vaqt bilan bog`liq davrlar osha milliy madaniy tashuvchanlik xususiyatlarini o`rganish, tahlil qilish, madaniyatimiz, milliy ong va tafakkur tarzimizning XIX asrdagi va bugungacha xizmat qilayotgan lingvokulturemalarni o`rganish, ularni antroposentrik paradigmalar ko`zgusida tahlil qilish, milliy madaniyatimizning yashovchanligini va tashuvchanligini o`zida saqlagan lingvokulturemalarni o`rganish kelgusida amalga oshiradigan pirovard maqsadimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Usmonova . Lingvokulturologiya. Darslik. Toshkent-2019.



2. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов
высших
учебных заведений. -М.: Изд. Центр "Академия", 2001. -208с.
3. Mahmudov N. – Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va
adabiyoti-Toshkent, 2012.-№5anticheskij, pragmatischenkiy i
lingvokultrologicheskij
aspekti. - M.: Shkola "Yaziki russkoy kulturi", 1196- S.222.
4. «Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy
izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya
"ZARBULMASAL"ASARIDAGI OBRAZLAR TASNIFI
Tojamatova Sarvinoz Rustambek qizi<https://doi.org/10.5281/zenodo.6668118>